



“Avesto”da ayrim antroponimlarning leksik-semantik tadqiqi

**Allaberganova Rayxon,
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktaranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Avesto”ning onomastik qatlami, xususan, ba’zi antroponimlarning leksik-semantik, badiiy-funksional jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Kayumars, Hushang, leksik-semantik tahlil, badiiy tahlil, etimologik tahlil, Zardusht

Аннотация. В данной статье рассматривается ономастический слой "Авесты", в частности лексико-семантические, художественно-функциональные аспекты некоторых антропонимов.

Ключевые слова: Каюмарс, Хушанг, лексико-семантический анализ, художественный анализ, этимологический анализ.

Annotation. This article reflects on the onomastic layer of “Avesto”, specifically the lexical-semantic, artistic-functional aspects of some anthroponyms.

Key words. Kayumars, Hushang, lexical-semantic analysis, artistic analysis, etymological analysis, Zoroastrian

Turkiy xalqlar tili va adabiyoti qadimdan eroniy xalqlar tili va adabiyoti bilan mushtarak holda taraqqiy etib kelgan. Bu hol har ikki etnos tilining lugʻat tarkibi hamda asrlar davomida yaratilgan ilmiy va badiiy adabiyotida oʻz aksini topgan. Bu hol xalq ogʻzaki ijodida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Fors adabiyotidagi Rustam, Siyovush, Bahrom, Doro, Anushervon kabi obrazlarning oʻzbek adabiyoti va ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodida boshqa xalqlarning (arab, hind kabi) yozma va ogʻzaki adabiyoti ta'sirida paydo boʻlgan qahramonlarga nisbatan juda mashhur. Bunga sabab oʻzbek xalqining bu qahramonlarni yaratilishida va badiiy obraz, xalq qahramoni sifatida takomil topishida ulkan hissasi borligidadir. Shu sababdan bu qahramonlar haqidagi dostonlar, rivoyat-u, afsonalar oʻzbek xalqi tomonidan sevib oʻqiladi. Bu kabi xalq qahramonlarining tarixiy ildizlari esa “Avesto”ga borib taqaladi.

Demak, oʻzbek tilida bu kabi onomalarning nima uchun, qay maqsadda qoʻllanganini va ularga qanday vazifalar yuklatilganini aniqlash uchun bu obrazlarning genezisini oʻrganish zarur. Chunki soʻzning badiiy yuki bevosita uning leksik ma'nosi bilan chambarchas bogʻliqdir. Xususan,



Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi ayrim shaxs nomlarining leksik genezisini o‘rganish jarayonida biz ularning ayrim hollarda antroponim, ayrim hollarda esa epik nom bo‘lib kelishini kuzatdik: “Fors ahlining zu‘mi uldurkim, Kayumars favtidin so‘ng Hushang zuhurig‘acha 100 dog‘i 70 yildin ortuqroq eron dorussaltanasi podshohi nofizi farmon vujudidin xoli erdi”(2:68). Ushbu o‘rinda Hushang, Kayumars shaxs nomlari antroponim sifatida kelgan bo‘lsa,

Qani shoh Hushangi firuzmand,

Qani shoh Tahmuras devband (2:477).

yoki Hushang kabi, Hushang yanglig‘ singari hollarda u epik nom sifatida keladi hamda ikkisining badiiy yuki farqlanadi.

Hushang – bu nom “Avesto”da Haoshyan(g)ha laqabi bilan tilga olingan hamda pahlaviy va forsiyda ham Hushang tarzida qo‘llangan. Bu nomning ma‘nosi yaxshi uy-joy bo‘lib u ayni Hushang davrida odamlar yaxshi uy-joyga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Hushang Qayumars vafotidan so‘ng taxtga o‘tiradi va yetti iqlimni boshqaradi.

“Burhone qote”da Hushang haqida shunday deyilgan: u Odam alayhissalom to‘rtinchi avlodining nomi bo‘lib, peshdodiy podshohlardandir. Otasi Siyomak va bobosi Qayumarsdir. Aytadilarki, olov va temir ayni Hushang davridan boshlab foydalanila boshlandi, ziroat ekinlari ham, yaxshi uy-joylar ham uning davrida paydo bo‘ldi. U Qayumarsdan so‘ng taxtga o‘tirib 40 yil podshohlik qilgan. Undan so‘ng 300 yil olamda podshoh bo‘lmagan.

“Avesto”da u Haoshyan(g)ha tarzida bo‘lib, yaxshi uy-joy qurgan odam ma‘nosini anglatadi. Bu nom ikki qismdan iborat: hush+hang. Avvalgi qism hush, haosh – yaxshi ma‘nosini anglatgan. Pahlaviyda ushbu so‘z xvosh shaklini olgan, pozandda xvash, kurdiyda xosh, vesh, afg‘on tilida yozh, Eronning bir qancha lahjalarida, xususan, sho‘g‘niyda xaish, sariko‘liyda xex, uromoniyda wosh, giylakiyda xush tarzida qo‘llanadi. Bu so‘z o‘zbek tiliga ham o‘zlashib, xush kelmoq, xush ko‘rmoq kabi ot + fe‘l tipidagi qo‘shma fe‘llarda, xushbo‘y, xushbichim, xushxulq kabi ko‘plab so‘zlarda yaxshi ma‘nosini qo‘shuvchi komponent sifatida istifoda etiladi. Avestoviy hush, haoshning turli davr va turli tillarga oid fonetik variantlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi well tahlil qilinayotgan hush, haosh bilan bog‘liqdir. Chunki xushning fonetik taraqqiyoti belgilansa, haosh – xvash – wosh – vesh fonetik qatori yuzaga keladi va wellning asosi ham ma‘lum darajada oydinlashadi.

Haoshyanghadagi angha yoki gha – makon, joy ma‘nosini anglatadi va bu komponentni dujangha – yomon joy (do‘zax)da so‘zida ham ayni gha shaklida



uchratamiz. Gha makon, uy-joy ma'nosida hozirda urduchada ghar گھار tarzida uchraydi. Bu o'zak o'zbek tilining Samarqand, Buxoro shevalarida beshik ma'nosini anglatuvchi gavara so'zi tarkibida saqlanib qolgan(6:92).

Gushtasp – bu nom “Avesto”da (vishtospa) tarzida kelgan bo'lib, qadimgi forsiyda Vištāspa, eylomiyda Mi – iš – da – aš – ba, akkad tilida uš – ta – as – pa, yunonchada ΥζΤ ζ kes – Hishtosp shaklida bo'lib, hurkak ot egasi ma'nosini anglatadi. Gushtasp va Zarir Luhrosbning o'g'illari bo'lgan.

“Burhone qote”da Gushtasp haqida shunday deyiladi: Isfandiyor ruyintanning otasi bo'lib, aytishlaricha, 160 yil podshohlik qilgan va Zardusht dinini birinchilardan bo'lib qabul qilgan hamda Zardusht o'lgach unga munosib maqbara qurdirgan. “Avesto”da va qadimgi forsiyda Vishtaspa (=Ystašpes yunonchada) tarzida qo'llangan. U ikki qismdan iborat: vishta – ishdan bo'shshgan, zaif, qo'rqq, kamtar ma'nolarida, aspa – ot ma'nosidadir. Ikki so'z birgalikda bo'shshgan, zaif otga mingan ma'nosini anglatadi.

Som – “Avesto”da katta xonadonlardan biri Som xonadonidirki, Sarit va Gershasp ham shu xonadon a'zolaridir. Bu xonadon nomi 9-Yasnaning 10-bandida va ilk Yasnaning 92-bandida, shuningdek, boshqa bir qancha o'rinlarda tilga olingan bo'lib, Gershasp va uning otasi Sarit ushbu suloladan yodga olinganlaridandir. Som so'zi “Avesto”da Sâma shaklida kelgan bo'lib, bu aniq bir shaxs nomi sifatida emas, xonadon (sulola) nomi sifatida kelgan. Ammo pahlaviy rivoyatlarida seyistonlik Som ismli ikki pahlavon tilga olinadi: biri Asratning otasi bo'lib, “Gershaspnoma”da Shav shaklida kelganini ko'ramiz va uning asli, negizi Somdir. Ikkinchisi esa Gershaspning nevarasi va Zolning otasidir.

Yuqoridagi tahlillardan shu ko'rinadiki, o'zbek tilida uchraydigan “Avesto”ga oid shaxs nomlarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: avestoviy antroponimlar hamda avestoviy epik nomlar. Ularni ma'lum mezonlar asosida farqlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, eng avvalo, agar tarixiy ma'lumot berilayotgan hamda konkret tarixiy shaxs faoliyati bilan bog'liq hodisalar keltirilayotgan o'rinlarda bu nomlarni biz antroponimlar deb bilsak, o'quvchiga nasihat, o'tmishda yashab o'tgan insonlar hayotidan ibrat olish haqida fikr yuritilayotgan o'rinlarda, shuningdek talmeh san'ati qo'llangan o'rinlarda bu nomlar epik nom sifatida gavdalanishiga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.



Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. T. XVI. T.: Fan. 2000. – B. 195.
2. Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchi Yu. Bregel. – Leyden. 1988. – B. 345.
3. Fasmer M.R «Етимологический словарь русского языка». Перевод с немецкого и дополнения О.Н.Трубачева. Том ИВ. М. Прогресс. 1987. – С.102.
4. Firdovsiy. Шахнаме. В девяти томах. Том 1. Научно критический текст, разночтение, премичания и приложения М.Н.Осмонова. – М.: Наука, 1991.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. TOSHKENT., 2000. 85-87 betlar.
6. O'razboev A. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi. T.: Muharrir. 2013. – B. 92.